

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti




SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



SIYOVUSH KASROIY SHERIYATIDA POETIK ANANALAR

*Dinora Yusupova**O'qituvchi,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: poetik an'analar, Siyovush Kasroi, afsonaviy motivlar, an'anaviy obrazlar, Avesto, Firdavsiyning "Shohnoma" si, Orash obrazi.

Annotatsiya: Ma'lumki, She'riyat Eronning ijtimoiy tafakkur ahli uchun asrlar davomida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Eronda shaxsning axloqiy normalari qadim zamonlardan beri she'riy tarzda shakllantirilgan. Sharq xalqlari adabiyotini, xususan fors she'riyatini tadqiq qilish uchun uning asosiy negizlarini bilish, she'r ilmining klassik va zamonaviy muammolari, o'ziga xos jihatlarini ochib bera olish kabilar tadqiqotchidan talab qilinadigin muhim omillardan sanaladi. XX asr Eron demokratik she'riyatining rivojlanishi unda ijtimoiy mavzuning kuchayishi bilan mashhur edi. She'riyat muammolarining zaruriy ijtimoiy masalalar bilan uzviyligi she'riy ongning tubdan o'zgarishiga olib keldi. XIX-XX asrlar davomida yevropa she'riyatining rivojlanishi ratsionalistik she'riyatdan xalos bo'lish va verlibni tasdiqlash belgisi ostida borayotgan edi. She'riyatning asosiy janriy uslublari oxirgi yillarda qisqa lirik she'rlarni tashkil etmoqda. Shoir shahar ko'chalarida xunarmandlar ustaxonasi, xiyobonlar va changli ko'chalarda ko'rgan maishiy manzarani ifodalashi zamonaviy fors she'riyati uchun yangilik edi. Bunday janrlarda yaratilgan eng yaxshi asar chinakam realistik ruhda yozilgan asarlardir. Hozirgi davr Eron she'riyatining adabiy oqimi va yangi she'riy shakl va janrlarning 1970-1980-yillardan keyingi rivoji, janr va uslublar taraqqiyoti, davr she'riyatining badiiy xususiyatlarini tadqiq etish maqolaning asosiy ilmiy maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqolada qadimiy afsonalarning zamonaviy adabiyotda aks etishiga doir qarashlar eronlik shoir Siyovush Kasroi ijodi misolida tahlil etiladi. Shuningdek, konkret afsonaviy obrazlarning qiyosiy tadqiqi asosida an'ana va novatorlik masalasi yoritiladi.

POETIC TRADITIONS IN SIYOVUSH KASROI'S POETRY

*Dinora Yusupova**Lecturer,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: poetic traditions, Siyavush Kesrai, legendary motifs, traditional images, Avesta, "Shahnameh" Firdavsi, the image of Orash.

Abstract: It is well known that poetry has had a special significance for the socially minded people of Iran for centuries. In Iran, the moral norms of the individual have been formulated in poetic form since ancient times. To study the literature of the peoples of the East, especially Persian poetry, it is important to know its basic principles, to be able to identify classical and modern problems of the science of poetry, to be able to reveal its originality. aspects. The development of democratic Iranian poetry of the 20th century was famous for strengthening the social theme in it. The integration of the problems of poetry with the necessary social issues has led to a radical change in poetic consciousness. During the 19th and 20th centuries, the development of European poetry took place under the sign of getting rid of rationalistic poetry and affirming the will. The main genre styles of poetry in recent years are short lyrical poems. What was new for modern Persian poetry was that the poet expressed the everyday scene he saw on the streets of the city, in a craft workshop, alleys and dusty streets. The best works created in such genres are works written in a truly realistic spirit. The literary current of modern Iranian poetry and the development of new poetic forms and genres after the 1970s and 1980s, the development of genres and styles, the study of the artistic features of poetry of that period constitute the main scientific purpose of the article. This article analyzes the views on the reflection of ancient legends in modern literature on the example of the work of the Iranian poet Siyavush Kasrai. Also, based on the comparative study of specific mythological images, the problem of tradition and innovation is highlighted.

ПОЭТИЧЕСКИЕ ТРАДИЦИИ В ПОЭЗИИ СИЕВУША КАСРОЯ

*Динора Юсупова**Учитель,**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: поэтические традиции, Сиявуш Кесрай, легендарные

Аннотация: Как известно, что поэзия на протяжении веков имела особое значение для социально мыслящего народа Ирана. В Иране моральные нормы

мотиви, традиционные образы, Авеста, "Шахнаме" Фирдавси, образ ораш.

личности с древних времен формулировались в поэтической форме. Для исследования литературы народов Востока, особенно персидской поэзии, важно знать ее основные принципы, уметь выявить классические и современные проблемы науки о поэзии, уметь раскрыть ее своеобразие. аспекты. Развитие демократической иранской поэзии 20 века славилось усилением в ней социальной темы. Интеграция проблем поэзии с необходимыми социальными вопросами привела к коренному изменению поэтического сознания. В течение 19 и 20 веков развитие европейской поэзии проходило под знаком избавления от рационалистической поэзии и утверждения воли. Основными жанровыми стилями поэзии последних лет являются короткие лирические стихотворения. Новым для современной персидской поэзии было то, что поэт выразил бытовую сцену, увиденную им на улицах города, в ремесленной мастерской, переулках и пыльных улицах. Лучшие произведения, созданные в таких жанрах, это произведения, написанные в истинно реалистическом духе. Литературное течение современной иранской поэзии и развитие новых поэтических форм и жанров после 1970-х и 1980-х годов, развитие жанров и стилей, исследование художественных особенностей поэзии того периода составляют основную научную цель статьи. В данной статье анализируются взгляды на отражение древних легенд в современной литературе на примере творчества иранского поэта Сиявуша Касраи. Также на основе сравнительного изучения конкретных мифологических образов освещается проблема традиции и новаторства.

KIRISH

Xalq tafakkuri va ijodining mahsuli bo'lgan afsona va miflar asosan konkret tarixiy sharoit va voqealardan kelib chiqqan bo'lib, ularda hayot mashaqqatlari va xalq orzulari aks etadi. Afsonalar miloddan avvalgi davrlarda, xususan qadimgi Misr, Hindiston, Eron davlatlarining asotiriy qarashlari natijasida bugungi kungacha yetib kelgan.

Eron adabiy tanqidchiligida afsonalarning janr xususiyatlari, afsonaviy qahramonlar va ularning zamonaviy adabiyotda qo'llanilishi kabi masalalarga alohida e'tibor berib kelingan. Jumladan, eronlik tadqiqotchi Hasanpur Oloshtiy bu xususda quyidaicha fikr bildiradi: "Afsonalar zamonaviy she'ning mazmun – mohiyatini hamda tilini muvozanatda ushlab turuvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Afsonalar garchi qadimgi dunyoga taalluqli bo'lsa-da, insonlar tasavvurida o'sha davrni gavdalantirgan. Shuningdek, yangi davr va intellegentlar asrida bugungi kun insonlari aql – zakovatida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan"¹.

TADQIQOTNING USULLARI

ادبيات پژوهش، شماره 9، پاییز 1388، مقاله حسین حسن پور آلاشتی، مراد اسماعیلی. "تحليل اسطوره ها در اشعار سیاوش کسرایي". ص 90¹

Eron she'riyatidagi "she'r-i no'u" adabiy oqimi va an'anaviylik, afsonaviy obrazlar talqini, davr she'riyatining badiiy xususiyatlarini tadqiq etish maqola maqsadini tashkil etadi. Bugungi kun Fors she'riyatiga kirib kelayotgan yangi oqimlarning XX asr so'ngidagi taraqqiyoti, bu davr shoirlari ijodiy merosining o'rni va amaliy ahamiyati, ular she'riyatidagi o'ziga xosligi, 1970-2000-yillarda she'riyatida aks etgan an'anaviy obrazlar, afsonalarning qayta jonlanishi, shoirlar badiiy tafakkurining o'ziga xos jihatlari hamda ular ijodida aks etgan g'oyalarni talqin etish mazkur maqolaning vazifasi sanaladi.

Usullar. Eron zamonaviy she'riyatida XX asrning so'nggi choragida ro'y bergan yangilanishlar, ulardagi janr va uslub masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishida tarixiy-qiyosiy tahlil, shuningdek, badiiy tahlil jarayonida tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR

Darhaqiqat, afsonalar faqat o'tmishga xos adabiy hodisa emas. Turli davrlarda, shuningdek, zamonaviy adabiyotga mansub asarlarda ham mashhur afsonalar motivlarining aynan o'zgartirilmasdan kelishi yoki transformatsiyaga uchragan holda qo'llanilishi uchraydi. Ba'zan qadimgi afsonalar syujetlarining mantiqiy davomini yangi davrda yuzaga kelgan asarlarda ko'ramiz. Shuningdek, so'nggi yillarda yaratilgan modern ruhdagi ko'pgina she'riy va nasriy asarlarni tushunish mavjud afsonalar haqidagi bilimga ega bo'lishni talab qiladi.

Zamonaviy adabiy asarlarda afsonaviy qahramonlar talqini qadimiy davr adabiy asarlariga qaraganda ko'p qirralidir. Quyida ulardan ayrimlariga to'xtalamiz.

Qadimiy afsonalarni hech o'zgartirishsiz qayta yaratish. Shoir qadimiy afsonalarda tasvirlangan voqelik bilan yangi davr voqeligi o'rtasidagi o'xshashliklar asosida ma'lum bir afsona syujetidan hech bir o'zgartirishsiz foydalanadi. Darhaqiqat, bu turdagi afsonalarning davomiyligi siri hozirgi asrda ularning shu davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liqlik qudratidir. Misol tariqasida Siyovush Kasroiyning "Orash-ye kamongir" she'riy dostonida keltirgan afsonalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Qadimgi afsonalarga o'zgartirish kiritgan holda qayta yaratish. Bu holatda agar afsonalar yuzaga kelish holatlari bilan farq qilsa va ularni qayta yaratishning imkoni bo'lmasa, unda shoir afsonalarni hozirgi sharoit bilan moslashtirish uchun bu afsonalarga o'zgartirish kiritadi. Zero, "Afsonalar har zamonda o'zining alohida shaklida, o'rniga va tatbiq etish xususiyatiga ega bo'lgan. Vaqt davomida, geografik chegaralarda va turli insonlar orasida o'zgartirish mumkin va yangi ma'noni aks ettiradi". Doktor Xonlarining Simurg' davrining ekzistensializm g'oyalari ta'sirida noiloj asotirlar ham shu g'oyaning "jozibaliligi"ni o'ziga qamrab olgan².

Tarixiy shaxslarni "afsonaviylashtirish". Afsonalar doim ham yangi jamiyat tafakkuri bilan moslashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, o'rni bilan o'z joyini yangi afsonalarga bo'shatib beradi. Bu yo'nalishdagi afsonalar ko'pincha tarixiy siymolardan afsonaviy obrazlarni yaratish bilan xarakterlanadi hamda ko'proq siyosiy xarakterdagi asar namunalari sifatida yuzaga keladi.³

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan Siyovush Kasroi⁴ ham davr talablarini inobatga olib, ehtiyotkorlik bilan qadimiy afsonalardan va tarixiy siymolardan foydalangan holda yangi afsonalar yaratishi uning she'rlariga o'ziga xos badiiy barkamollik baxsh etgan. U o'zining ideologik va siyosiy qarashlarini ifodalashda afsonalardan mohirona foydalanadi. U hatto tarixiy

² حسين حسن پور آلاشتی، آمانحانی. 1385 ص 1

³ اسماعل پور 1388 ص 73

⁴ XX asr eron she'riyatining yirik vakillaridan biri, eron yozuvchilari uyushmasi a'zosi, siyosiy arbob va huquqshunos Siyovush Kasroi⁴dir (1926-1996).

siymolar taqdiri haqida afsonalar yaratib, ularga afsonaviy ko'rinish bergan. Fikrimiz isboti sifatida shoirning "Orash-ye Kamongir", "Jahon Pahlavon", "Anduh-ye Semurg" va "Mo'hr-ye so'rx" epik dostonlarida turli afsonaviy va tarixiy obrazlardan foydalanganini aytib o'tish mumkin. Quyida Siyovush Kasroi o'z she'rlarida qayta jonlantirgan mashhur afsonaviy obrazlarning ba'zilariga to'xtalamiz:

Siyovush obrazi. Siyovush haqidagi afsona Eron xalqining milliy afsonalaridan biri hisoblanadi. Eron xalqi uzoq yillardan beri Siyovushning g'am-anduhini ulug'lab keladi. Siyovush Kaykovusning o'g'li, Kayxusravning otasidir. Siyovush nomi keltirilgan eng qadimgi manbalar zardushtiylik dinidan qolgan afsonalardir.⁵ Eron shahzodasi Siyovush va Turon podshohi Afrosiyob o'rtasidagi munosabatlar, shu asosda Eron va Turon aloqalari ozmi ko'pmi Siyovush afsonasida o'z aksini topgan. Siyovushning shuhrati ko'proq O'rta Osiyoda yoyilganligi Xorazm va Buxoroda mashhur bo'lgan tarixiy manbalarda keltiriladi. Siyovush afsonasining tarixiy ildizlari "Avesto"da uchraydi. S.P.Tolstovning xabar berishicha, Siyovush miloddan avvalgi XIII asrda Xorazm davlatiga asos solgan. Bu xabarni Tolstov Beruniy ma'lumotlariga asoslanib keltiradi⁶.

Afsonada Siyovush o'gay onasining beodobona taklifini rad etib, otasiga bevafoqlik yo'lini tutmagan solih, vafodor farzand, so'zida sobit, qat'iyatli, teran fikrli mard inson qiyofasida gavdalanadi. Uning donoligi, aql-zakovati, odobi raqibi Afrosiyobni tahlikaga soladi. Natijada Siyovush Afrosiyobning buyrug'i bilan o'ldiriladi.

Siyovush - Firdavsiy "Shohnoma"sidagi afsonaviy obraz hisoblanadi. Siyovush o'z umrini Turon va Eron xalqlari tinchligi uchun fido qilgan shaxs hisoblanib, fors adabiyotida oliyhimmat, fidoiy, sadoqat timsoli hamdir. Firdavsiy "Siyovush" dostonida zulm-zo'rlik, o'zaro feodal urushlar, manmanlik va shoshqaloqlik, fisq-u fasod, g'iybat-u ig'vo, nohaq qon to'kish, talonchilik va xonavayronlikni qattiq qoralab, samimiy muhabbat, aql - zakovat va qahramonlik, xalq, vatan haqida g'amxo'rlik qilish, sulhparvarlik va xalqlar do'stligini ulug'laydi.⁷

Siyovush Kasroi ham Siyovush afsonaviy obrazini Eron xalqining qahramoni sifatida tasvirlaydi. Shoir mazkur obrazga o'zgartirish kiritmay avvalgi afsonalarga monand ifoda etadi.

Rustam va Suhrob obrazi. Firdavsiyning "Shohnoma" sida Rustam bahodir, mard va jasur obraz tarzida namoyon bo'ladi. "Shohnoma"da tasvirlanishicha, Rustam yetti yoshligidan barcha hunaru bilimlarni egallaydi, o'n to'rt yoshida jahonpahlavon darajasiga yetadi⁸. Kunlardan bir kun Rustam Turon chegaralariga ovga boradi. Bir qancha qulonlarni yer tishlatadi. O't yoqib, ulardan birini pishiradi. Uni yeb to'ygandan keyin uyquga ketadi. Shu yerdan o'tib ketayotgan otliqlar yaylovda o'tlab yurgan Rustamning oti –Raxshni ushlab Samangonga boradi. Uyqudan turgan Rustam otini topolmay, uni qidirib Samangonga boradi. Samangon shohi va ulug'lari Eronning buyuk jahonpahlavoni kelganini eshitib unga peshvoz chiqadilar. Shoh undan bir kecha mehmon bo'lishni iltimos qiladi. Samangon shohining qizi Taxmina yarim tunda Rustamning xobgohiga boradi va unga ishq izhor etadi. Natijada ikkovlari qo'shilishadi. To'qqiz oydan so'ng Taxmina o'g'il ko'radi. Kelbatda bobosi Somga o'xshagan bolaga Suhrob deb ism qo'yadilar. Suhrob o'n to'rt yoshga kirganida onasidan o'z ajdodini bilib oladi. U Eron shohini o'ldirib, taxtni Rustamga olib berishga va undan so'ng Turon shohini oradan ko'tarishga qaror qiladi. O'zi Turonga shoh bo'lishni ko'zlaydi. Ana shu niyatlarini amalga oshirish uchun Suhrob

⁵ حماسه سیوش. دانشگاه تربیت معلم ص 3

⁶ O'zbek adabiyotitarixi. 1978. B.:32-33

⁷ Hamidjon Homidiy. "Firdavsiy va O'zbek adabiyoti". Toshkent, 2012. B.:162

⁸ Abulqosim Firdavsiy. "Shohnoma" (Saylanma) Toshkent, 2012. B.:92-96

Eronga qarshi lashkar tortadi. O'z shum rejaları payidan bo'lgan Afrosiyob ham o'n ikki ming lashkar yig'ib, Hummon va Barmonlar boshchiligida Suhrob yordamiga jo'natadi. Ularga otabola bir-birlarini tanishlariga yo'l qo'ymaslikni topshiradi, ota o'g'il qo'lida o'ldirilishi uning bosh maqsadlaridan edi. Shundan so'ng kechasi yashirin holda Suhrobni o'ldirishni ham buyuradi. Shunday qilib, Kovus hamda Eronni osonlikcha qo'lga kiritishni mo'ljallaydi.

Suhrob Eron chegarasidagi qal'aga yetib keladi. Unga qarshi chiqqan Hajir va Gurdofarid bilan olishib, ularni mag'lub etadi. Bundan xabar topgan Kovus Rustamga noma yuboradi. Shoh mamlakat ayonlari bilan maslahatdan so'ng Rustamdan boshqa hech kim bu yosh bahodirga bas kela olmasligini tushunib yetadi. Rustam istar-istamas kechikib yetib keladi. Natijada ota va o'g'il jang maydonida ro'baro' bo'ladilar. Suhrob Rustamning kim ekanligini bilishga intiladi. Ammo buning iloji bo'lmaydi. Birinchi kurashda Suhrob Rustamni dast ko'tarib yerga yotqizadi va xanjar bilan boshini tanidan judo qilmoqchi bo'ladi. Shunda Rustam: "Bizning odatda bahodir yigit hamrohini birinchi yiqitganda o'ldirmaydi" – deb aldab qutulib ketadi. Ikkinchi kurashda esa Rustam Suhrobni yiqitadi va shoshilinch suratda bag'riga xanjar sanchadi⁹.

Rustam nomi juda ko'p asarlarda tilga olingan. "Saddi Iskandariy"da Ajam shohlari sulolalari mayonida "Qayqubod davrida Rustam yigitcha" edi desa, "Tarixi mulki Ajam" asarida "Isfandiyor" dostoni haqida so'z yuritib, "Rustam ulg'ayib erdi, anga harif ermas edi" deydi.¹⁰ Shuningdek Rustam obrazi mashhur shoir Turdining satirik asarlarida tilga olinadi, bundan tashqari mashhur dostonnavis Nodir – Uzlatning "Haft gulshan" dostonidagi ayrim qahramonlar hamda shoir Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom dostonidagi Bahrom ko'p jihatlari bilan Rustamga qiyoslanadi. Dostonda "Rustamona kor qildi", "Rustamona chiqdi" iboralarini ko'p qo'llagan Rustamning Afrosiyob bilan, Suhrob va Barzu bilan kurash lavhalarini eslatib, jang tasvirida yorqin kartinalar yaratishga muvaffaq bo'lgan¹¹:

*Ikkisi bir-bira xez etdi ul dam,
Magar Afrosiyob ila chu Rustam...
U ham shohning belidan tutdi mahkam,
Tutush qildi magar Suhrobu Rustam¹²*

Siyovush Kasroi ham bu an'analarni davom ettirgan holda o'zining "Jahan pahlavon" ("Jahon pahlavon") she'rini yaratadi. Quyida ushbu she'ridan parcha keltiramiz:

شکوفه جوان سرفراز آمدی	هلال رستم از راه باز آمدی
زمهر تو این شهر آذین گرفت	طلوع تورا خلق آیین گرفت
دل گرم بر سنگ بخشیده ای	که خورشید در شب درخشیده ای
شبان سینه را سپیدی نبود	نیودی تو و هیچ امیدی نبود
نه از چشمه آفتابی سراغ	نه سوسوی اختر نه چشم چراغ
به گل سایه شمع پیچان همه	فرو برده سردر گریبان همه
همه فسه درد می ساختند	به یاد تو بس عشق می باختند
نماند آتشی دود بر خامه رفت	"که رستم به افسون ز شهنامه رفت
بسی بیژن مهر در چاه ماند	"سمند بسی گرد از راه ماند
ولیکن تمنای نخورد آب از آب	"سیاوش ها کشت افراسیاب
مگر یاد خون سیاوش نیست ¹³	"در یغا ز رستم که در جوش نیست

⁹ O'sha asar. B.:123-124

¹⁰ Hamidjon Homidiy. "Firdavsiy va O'zbek adabiyoti". Toshkent, 2012. B.:36

¹¹ O'sha asar. B.:38-39

¹² "Bahrom va Gulandom" Sayqaliy. T.: 1960. B -26-49

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, Kasroiyning mazkur she‘rida podsho Rustamga qiyos qilinadi, xalq uning tashrifidan xursand bo‘lib, shaharni gullarga burkaydilar. Ammo voqealar rivojida podsho asl qahramon obrazi bilan o‘rin almashadi va Rustam afsonaviy qahramon hamda Eron va eronliklarning himoyachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Zero Siyovush Kasroiylar she‘rida tasvirlangan Rustam obrazi o‘z ishini qo‘ldan boy beradi. Firdavsiyning “Shohnoma”sida Rustam Bijanni zindondan qutqarib qoladi. Ammo Kasroiyning she‘rida Rustam Bijanga yordam berishni uddalay olmaydi va Bijan abadiy zindonda qoladi. Shuningdek “Shohnoma”da Siyovush Afrosiyob qo‘lida o‘ldirilganda, Rustam Turonni yer bilan yakson qiladi. Ammo mazkur she‘rda Siyovushning o‘ldirilishi bilan, “suv-suvdan” harakatga kelmaydi. Darhaqiqat Kasroiylar Rustam obrazini bir qancha o‘zgarishlar bilan tasvirlaydi, zero yangi jamiyat o‘ziga xos afsonalarga ehtiyoj sezardi. Eronning qadimgi afsonaviy qahramoni bo‘lgan Rustam endi bu davrga kelib biron foyda keltira olmaydi. Shoir shunga asoslanib va Rustam afsonasidan ilhomlanib, yangi bir afsona yaratishga qo‘l uradi.

Siyovush Kasroiyning “مهرد سرخ” dostonida Suhrob obrazi keltirilgan. Shoirning mazkur dostoni so‘nggi ijod namunasi hisoblanadi. Kasroiylar Suhrob obrazini Firdavsiy “Shohnoma”sining oxirgi pardasidan boshlaydi. Dostondagi voqealar qari qarg‘adan boshlanadi.¹⁴

Orash obrazi. Orash kamonchi Eronning qadimgi afsonaviy qahramonlaridan birining nomi. Orash Tabaristonlik bo‘lib, Manuchehrning sipohiyalaridan edi. U Eron va Turon urushidan so‘ng Eronlik kamonchi sifatida namoyon bo‘ldi, Eron va Turon chegarasi belgilandi.

Orash kamongir dostonining sharhi “Shohnoma”da keltirilmagan. Ammo u yerda uning nomi keltirilib, dostonidan ma‘lum bir ishoralar keltirib o‘tilgan.

Pahlaviy davridagi, shuningdek islom davridagi tarixiy kitoblarda Orashga ishora qilinadi. Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Kitob ul-boqiy” asarida “Tirgon bayrami”¹⁵ga tasnif berish chog‘ida Orash dostonini aytib o‘tadi va bu bayramning kelib chiqishini Orash eposi bilan bog‘laydi.

Avestoda Orashni “Orahsh” tarzida uchratishimiz mumkin. Avestoda aytib o‘tilgan eng yaxshi kamonchi “Orahsh” biz so‘z yuritayotgan Orashga qiyoslanadi.

Orash obrazi Dehxudo asarida ham keltirib o‘tilgan. Unda Orash Manuchehr lashkarlari orasidagi pahlavon kamonchining ismi. Manuchehr o‘z hukmronligining so‘nggi yillarida Turon hukmdori Afrosiyob bilan jang qiladi. Dastlab Afrosiyob g‘alaba qozonadi va Manuchehr Mozandaronga qochadi.

Siyovush Kasroiylar ham Orash obrazidan foydalangan holda “Orash-ye kamongir” (“Orash kamonchi”) epik dostonini yozadi. Uning Orash afsonaviy obrazini qayta yaratishiga quyidagi ikki omilni sabab qilib ko‘rsatish mumkin:

1. Siyovush Kasroiylar Eronning kelajagidan umidvor shoirlardan bo‘lgan. Vaholanki, noumidlik va tushkunlik shoir yashagan davrda barcha eronliklar qalbini egallab olgan bo‘lib, juda kam sonli aholi Eronning kelajagidan umid qilardi va ishonardi. Shoirning afsonaviy lirik qahramoni Orash haqidagi afsona Eron jamiyatida umidsizlik va tushkunlik hukmronlik qilgan qadimgi zamonlarda paydo bo‘ldi. Eronning barcha qahramonlari Afrosiyob bilan bo‘lgan

¹³ سیاوش کسرایی، 1383: ص 162-163

¹⁴ ماه نامه فرهنگ سیاسی، اجتماعی و ادبی شماره 64، اردیبهشت 1387. بهروز حسن زاده: " نقد و تحلیل منظومه "مهرد سرخ"

¹⁵ O‘rta Eron asrida o‘tkazilgan bayram nomi. (Eron shamsiy yilining 4-oyiga to‘g‘ri keladi. Bizda 21-22-iyun – 21-22-iyul)

jangda chorasiz ahvolda uning qo'shini saflarida xizmat qiladi. Orash kamonni o'qlagan holda namoyon bo'ladi. U eronliklar orasida umidvorlik, hayajon va qalblarida tug'yon uyg'otadi. Kasroiy ham Orash Kamongirning umidbaxshlik va ruhiy unsurlarini inobatga olgan holda eronliklar orasida bu afsonani o'z ishining asosi sifatida kiritadi va Orash kamongir dostonini shu asosda yozadi. Doktor Xonlariy bu haqda shunday yozadi: "Noumidlik va o'limni madh etgan aksariyat shoir va yozuvchilardan farqli o'laroq, bu she'rda hayotdagi umidvorlik, qalb tug'yoni, muhabbat, yelib – yugurish hukmronlik qiladi".

2. Shubhasiz, Kasroiy bu afsonani qayta yaratishdan asosiy maqsadlaridan biri jamiyat hayotini, uning ustidan hukmronlik qilayotgan umidsizlikni tanqid qiladi.

Ta'kidlash joizki, ko'p tanqidchilar bu she'rni millatga umid bag'ishlaydigan va ruhiy quvvat beradigan she'r deb baholaydilar. Zero, mamlakatdagi milliy harakatlardan so'ng odamlar umidsizlikka va tushkunlikka tushib qolgan edilar. Orash kamonchi esa umidbaxsh etuvchi va ruhiy quvvat bag'ishlovchi xislatlarga ega bo'lgan.

Kasroiy zamonasida ro'y berayotgan vaziyatlarga e'tibor qaratgan holda mazkur afsonani qayta yaratishga qo'l uradi. Eron jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat shoirni o'tgan kunlarga chorlaydi va shoirni mazkur mazmundagi she'rni yozishga undaydi. Zero, Eron jamiyati bir vaqtlar o'zgalari ustidan hukmronlik qilgan. Kasroiy shu vaziyatlarni hisobga olgan holda kuylaydi:

فصل ها فصل زمستان شد
 صحنه گلگشت ها گم شد نشستن در شبستان شد
 در شبستان های خاموشی
 می تراوید از گل اندیشه ها عطر فراموشی
 سنگر آزادگان خاموش
 خیمه گاه دشمنان پر جوش
 مرزهای ملک
 همچو سرحدات دامنگستر اندیشه بی سامان
 برجهای شهر
 همچو باروهای دل بشکسته و ویران
 دشمنان بگذشته از سر حد و از بارو

Mazmuni:

*Fasllar qishga aylandi,
 Sayr maydonlari g'oyib bo'ldi,
 Indamas tun oqshomlarida
 Guldan taralar fikrlar atri.
 Qo'rqinchli edi va o'limning boli.
 Zodagonlar istehkomi sokin,
 Dushman qarorgohi esa gurkiragan.*

Shundan ko'rinadiki, Siyovush Kasroiy Orash kamongir dostonini kuylash bilan Orashning orzusi o'z yurtidagi aholining tirgagi va tayanch manbai bo'la olish hamda umidsizlik va tushkunlikka giriftor bo'lgan, unga umid va ilinj ko'zi bilan boqayotgan odamlarni ozod etish va mavjud vaziyatni tanqid ostiga olish, shu yo'l bilan mamlakat ustidan tashqi kuchlarning hukmronligi va ularning ta'sir kuchini tugatish ekanligini ko'rsatib beradi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bu she'rda tasvirlangan Orash obrazi qadimda tilga olingan Orash timsoli kabi yurtiga va vatandoshlariga najot baxsh etish uchun o'z jonini fido qiladi. Ijodkor Orashning tilidan shunday deydi:

در این میدان
در این پیکر هستی سوز بی آسمان
پری از بیاید تا فرو ننشیند از پرواز

Mazmuni:

*Bu jang maydonida,
Bu jangda hayot qurol-yarog'siz o't ichida,
Qulab tushmasliging uchun joning bilan uchishing kerak
Va yana shunday deydi:*

شامگاهان
راه جویانی که می جستند آرش را به روی قله ها پی گیر
باز گردیدند
بی نشان از پیکر آرش
با کمان و ترکشی بی تیر
آری آری جان خود در تیر کرد آرش
کار صد ها صد هزاران تیغه شمشیر کرد آرش

Mazmuni:

*Kechki tomon,
Orashni izladilar qal'alardan, ketma-ket,
Qidirdilar,
Orashdan hech darak yo'q,
Ha,ha, Orash o'ziga kamondan o'q uzdi.
Yuzlab, yuz minglab kishi shamshir uchini o'ziga tiqdi.*

XULOSA

Siyovush Kasroiy Eron zaminida yaratilgan qadimgi afsonalarga yangi mazmun yukladi hamda o'zining siyosiy g'oyalarini, jamiyatda sodir bo'layotgan voqelikka munosabatini ularda aks ettirdi. Siyovush Kasroiy yaratgan she'rlarning shaklan soddaligi, ravon tilda yozilganligi afsonalar yaratilgan davrdan ancha keyin yashayotgan yangi avlodning o'z tarixiga, milliy qadriyatlariga bo'lgan munosabatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Kasroiy she'rlari orqali yangi avlod kitobxonni ko'z o'ngida afsonaviy Siyovush timsolida halol, pok, dono va aqlli, Rustam va Suhrob qiyofasida mard, bahodir va jasur ajdodlarining badiiy qiyofasi gavdalanadi. Bu qahramonlar asrlar davomida vatanparvar va yuksak qalb sohiblari sifatida namoyon bo'lib kelganlar. Kasroiy she'riyati fors mumtoz epik an'alarining eng ilg'or, umuminsoniy jihatlarini o'zida mujassam etgan badiiy tafakkur mahsuli sifatida chuqur tadqiq etishga loyiqdir.